



“Tashabbusli byudjet” loyihasining 2025 yil 2-bosqichi boshlanishi to’g’risida

MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 30 yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarori asosida joriy etilgan “Tashabbusli byudjet” loyihasining 2025-yil 2-bosqichi joriy yilning 15-iyul kunidan boshlanishi rejalashtirilmoqda.

Bunga ko‘ra:

15-iyuldan 3-avgustga qadar – loyiha kiritish bosqichi;

4-avgustdan – 18-avgustga qadar – loyihalarni saralash bosqichi;

19-avgustdan – 21-avgustga qadar – targ‘ibot bosqichi;

22-avgustdan – 31-avgustga qadar – ovoz berish bosqichlari o‘tkaziladi.

Shu munosabat bilan Sizlardan ushbu jarayonda o‘zingizni loyihangizni ilgari surib ishtirok etishingizni so‘raymiz.